

KO'KGUMBАЗ MASJIDI MUSTAQILLIK YILLARIDA

Karimova Gulzoda

Qarshi davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qarshi shahridagi Ko'kgumbaz masjidining tarixi, mustaqillik yillarida holati haqida manbalar asosida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar. Qarshi shahri, Ko'kgumbaz masjidi, masjid, honaqoh, mehrob.

XVI asr oxirlarida Abdullaxon II (1557-1598) hukmdorligi davrida Markaziy Osiyoda katta qurilishlar avj olgan. Qarshi shahrida o'sha vaqtida madrasa, hammom, hashamdar Ko'kgumbaz namozgohi qurilgan, hatto Qashqadaryo ustiga ko'prik ham solingan.

Ko'kgumbaz masjidi hayit namozlari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda xalq har yilda ikki marta «Ramazon» va «Qurban» hayitlari marosimlaridagina to'planardi. Hayit namizi masjidlari namozgoh yoki musallo deb ham yuritilgan. Namozlar paytida ko'plab xalq yig'ilganligi sababli namozgohlar shahardan tashqarida, kengroq joylarga qurilgan. Odatda, guzar, jome' va hokazo masjidlarning devori yoki biiolar bilan o'rالgan hovlisi bo'lgan. Namozgohlar esa ochiq, keng maydonda mehrob devori bilan qibлага qaratilgan yagona binodan tashkil topgan. Ko'kgumbaz jome' masjidi ana shunday namozgohlardan bo'lib, o'tmishda «Namozgoh», «Juma masjidi» deb atalgan.

Masjid binosi gumbaz tomli asosiy bosh xona – xonaqoh hamda uning ikki yonidagi chap va o'ng qanot qismlaridan iborat. Tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, uzunligi 38.25 metrga teng. Qisqa tomonlarining biri 14 metr, ikkinchisi esa 14.6 metr. Asosiy xonaning tarhi 8 metrli kvadrat, u yon devorlariga ishlangan ravoqli yo'lak bilan qanot qismlariga bog'langan. Qanot qismlarining har biri ikki qator bo'lib tushgan to'rt xonadan tashkil topgan. Xonalar tepasi gumbazlar bilan yopilgan. Binoning yuza va yon tomonlaridagi xonalarning oldi o'z vaqtida ayvon singari ochiq bo'lgan. Hozir ularga g'isht terilib, yon tomondagilarning butunlay yopilganligini, yuzadagilarning esa qisman toraytirilganligini ko'ramiz. Xonalar, o'z navbatida, bir-biriga ravoqli bo'shliqlar orqali ochiladigan qilib qurilgan. Asosiy xonaning qibla tomonidagi devorida mehrob, yonida esa pog'onali minbar mavjud. Mehrob eniga ancha chuqur ishlangani uchun bino orqasidagi devor bir oz kengaygan. U xonaqoh o'rtaidan chetraqda surilgan holatda joylashgan. Xonaning oldi yon qanotqismlar bilan uzviy bog'langan peshtoqdan iborat. Uning qalin dahanalari ichida aylana zinalari yon qanotlar binoning tomiga olib chiqadi.

Balandligi 14 metrga teng xonaqohning tepasi qanotlarga qo‘ndirilgan ichki gumbaz bilan yopilgan, xonaqohning qibla tomoni devorida mehrobni o‘rab olgan katta ravoq ichkarisi qalqonsimonmayda bag‘alli yarim gumbaz shaklida. Yonqanot xonalarning gumbazlari qabariq ko‘rinishdagi ganchkor bag‘al tarzida ishlangan. Bino, asosan, 26x26x5 va 28x28x6 sangimetrlı chor g‘ishtlar bilan qurilgan. Shuningdek, peshtoqning qalin devorlari ichini to‘ldirish hamda xarsang toshli poydevorlarning tagini tekislash uchun g‘isht parchalari ishlatilganligi ham aniqlandi.

Poydevorlar nisbatan uncha chuqur emas – 0.7-1.1 metr, qalinligi ham devorlar qalinligiga teng, unda tuproq bilan to‘ldirilgan joylari ham uchraydi.

Peshtoq poydevorlari nisbatan ancha puxta ishlangan bo‘lsa-da, qalinligi devorlardan farqqilmaydi. Binoni mustahkamlash choralari ham ko‘rilgan. Buning uchun poydevorlar qurishdan avval chuqur qilib qazilgan xandaqlarga 11-12 marta suv quyib, yer cho‘ktirilgan va shibalangan. Oqibatda, poydevorlar ostida qalin 1.3 metrli mustahkam zamin hosil qilingan.

Binoning eng asosiy, mo‘tabar qismi xonaqoh hisoblanadi. Chunki bu xonada namozxonlarga qibla tomonini belgilab beruvchi Mehrob joylashgan. Namozgohning old qismiga ulkan peshtoq va Xonaqoh ustiga uzoqdan yaqqol ko‘rinadigan baland moviy gumbaz qurilgan. Peshtoqni sirlangan koshinlar bilan bezatilishi ham shu maqsadda qilingan (yon qanot qismlari bezatilmagan).

Binoni bezagan qoplamariga moviy, ko‘k, zangori va oq rangli koshinlar hamda silliqlangan g‘ishtlar ishlatilgan. Peshtoqning ichki va yon devorlaridagi bezaklar sirlangan qadama g‘ishtlardan terilgan sodda shaklli geometrik naqshlar hamda ylapra bitilgan xatlardan iborat (xatlarda «Olloh», «Muhammad» va boshqa so‘zlar yozilgan). Ravoqning kesik hoshiyasi va qoshlari sirkor koshinlar bilan qoplangan bo‘lib, ularning naqshi moviy, ko‘k, oq, qoramtilrangdagagi o‘simpliksimon, yulduz va ko‘pburchak shakllaridan tuzilgan. Peshtoqdagi ichki kichik ravoqning qoshlariga koshinkor hoshiyalar ishlangan. Hoshiyada ko‘k zaminga oqharflar bilan yozilgan tarixda bino Abdullaxon amri bilan Mir Baqo Bahodir boshchiligidagi qurildi, deyilgan. Qarshilik keksalar tarix yozuvlarida masjidning qurilgan yili hijriy sana 999 (1590-1591 yillarga to‘g‘ri keladi) degan raqamlar bo‘lganligini ham eslashadi. Hozir bu raqamlar to‘kilib yo‘qolgan. Yonlari ikki qator hoshiyalar bilan o‘ralgan mehrob ravoqining qirrasi, ravoqdan teparoqdagi qoshlar hamda mehrob ichidagi muqarnaslar ham sirli koshinlar bilan qoplangan. Asosiy xonadagi katta taxmonning devorlariga ishlangan izoralarning naqshi o‘simpliksimon shakllardan tashkil topgan. Unda qo‘llanilgan ranglar bino yuzasidagi ranglar bilan bir xil.

Tashqi gumbazning aylana devoriga sirlangan g‘ishtlardan terib ishlangan xatdor hoshiyada «al-Baqo lil-lahi al mulku li-lilahi» degan so‘zlar takrorlangan.

Bu hoshiyaning teparog‘ida, oq zaminga ko‘k harflar bilan yozilgan yana bir xat qoldiqlari bor. Ular «Qur'on»dan ko‘chirib yozilgan oyatlardir. Aylana devor bilan gumbazning tutashgan joyiga ishlangan sharafani o'simliksimon naqshli koshinlar bezab turibdi. Sharafa koshinlari boshqa joydagilarga nisbatan ancha sifatli ishlangan. Masjidning «Ko'kgumbaz» deb nomlanishiga sabab bo'lган ko'k qoplamali tashqi gumbazi 1898 yildagi zil-ziladan qattiq shikastlangan va o'pirilib tushgan.

XVI asrda masjidning oldida pishiqg'ishtdan ishlangan uzun supaning sharqiy uchi hozirgi hovli chegarasidan ancha tashqarida edi. Dastlab masjidning hovlisi ham juda katta maydonni egallagan. Qarshilik keksalarning aytishlaricha, yaqino'tmishda ham masjid oldi paxsa devor bilan o'rالgan 9-10 hektarli qo'rg'on bo'lган. Ayni paytda, ular yonida hovuz hamda katta bog'bo'lганligini ham eslashdilar.

Masjid peshtoqidan o'n besh metr chamasi uzoqlikda sakkiz burchakli shiypon joylashgan. Uning gumbazi ovozni kuchaytirish xususiyatiga ega bo'lган. Bu shiyponni namozni boshqarish uchun imomga qurilgan minbar, deb noto'g'ri tushuniladi. Aslida esa minbar asosiy xonada, ya'ni mehrob yonida joylashgan.

Fikrimizcha, bu shiypon masjidning so'fisi (mukkabbiri yoki takbirchisi) namoz paytda uzoqdagilarga imomning aytganlarini takrorlab eshittirish uchun qurilgan bo'lsa kerak. Shiypon masjiddan ancha keyin – XVIII-XIX asrlarda qurilgan bo'lib, hozir saqlanmagan.

Ko'kgumbaz masjidi XVI asr oxirlaridagi Markaziy Osiyo me'morchiligining mahsuli. Abdullaxon nomi eslatilgan tarix o'qilishidan ancha ilgariyoq tadqiqotchilar masjidning tuzilishini o'rgangan holda, u shak-shubhasiz, XVI asr oxirlarida qurilgan, degan xulosaga kelganlar. Abdullaxon davrida keng quloch yoygan qurilish ishlarini mablag' bilan ta'minlash qiyinlashgan edi. Shu sababli, me'morchilikda tejamkorlikka o'tilgan. Bu esadevorlarni kavak qilib ishlab, qoplamalarida esa qimmatbaho sirli parchinlar o'rniga oddiy koshin sopollarni qo'llashga olib keldi.

O'sha davrda qurilish ishlari sifatining pasayganligini Ko'kgumbazda ham ko'ramiz. Peshtoqqalin dahanalarining tashqi qatorlarigagina butun g'isht terilgan bo'lib, ichlari g'isht parchalari bilan to'latilgan. XVI asr oxirlarida qurilgan boshqa yodgorliklar qatori Ko'kgumbazda ham koshinlardagi rang xillari kam, ular gohida qorishib ham ketgan. Qurilish ishla-ri yetarli darajada sifatli bo'lмаганлиги binoga katta zarar yetkazgan: tashqi gumbaz va peshtoqning yuqorisi qulagan, yon qanot qismlardagi xonalarning ba'zi bir yerlaridan koshin va sirlangan g'ishtchalar ko'chib tushgan. Shuning uchun binoda bir necha bor qayta tiklash ishlari olib borildi, jumladan, yon qanot qismlarning ba'zi joylari qaytadan qurildi, mehrob hamda uning atrofidan terilgan koshinlar o'rnida ganch suvoqlar paydo bo'ldi. Shunga qaramay, bu yodgorlikning qadr-qimmati kat-ta. Xushbichim, keng va baland bo'lган xonaqohning gumbaz osti qurilmalari ko'rak, sirli qoplamalari bilan bino husniga husn qo'shgan.

Asrlar davomida shaharni bezab kelgan Ko‘kgumbaz masjidni bugungi kunda Qarshining ko‘hna me’morchiligi obidalari ichida ko‘zga ko‘ringan yodgorlikdir. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda XII-XVI asrlardan bizgacha saqlangan namozgohlar soni juda oz. Shu bois ham Qarshidagi namozgoh Vatanimiz me’morchiligining bizgacha yetib kelgan noyob yodgorligi sifatida ham qadrlidir.

Masjid turli yillarda bir necha marta ta’mirlangan, jumladan, 1957, 1971, 1975 yillarda qisman va 1982 yilda to‘liq ta’mirdan chiqarildi. Oxirgi ta’mir paytida Samarqandlik ustalar tomonidan masjid binosining katta gumbazi qayta tiklandi.

1996 yilda Amir Temurning 660 yilligi nishonlanishi munosabati bilan Qarshi shahridagi boshqa tarixiy obidalar qatorida Ko‘kgumbaz masjidida ham qurilish va ta’mirlash ishlari o‘tkazildi. Shu yili qator qo‘srimcha binolar, jamoatxona, darvozaxona va darvoza qurilib, masjid atrofi obodonlashtirildi.

E’tiborli jihat shundaki, masjidning qadimiyligi qismi uning asl ko‘rinishi qadimda qanday bo‘lgan bo‘lsa, imkon qadar shundayligicha ta’mirlandi, qo‘srimcha binolar qurishda esa milliylik bilan uyg‘unlashgan zamonaviy uslub qo’llandi [1].

1995 – 1996 yillarda Qarshi shahrida joylashgan Ko‘kgumbaz jomeye masjidida ham ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. Yodgorlikning atroflari obodonlashtirildi. Asosan, inshootning tashqi qismi koshinlari qayta tiklandi, ichki qismida ham bezak ishlari amalga oshirildi. Bunda Olim Ro‘ziyev, Ismoil Ismoilov kabi mohir ustalarning xizmatlari beqiyos bo‘ldi [2].

Qarshidagi Ko‘kgumbaz masjidi (XVI asr) o‘z mahobati bilan ajralib turadi [3]. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash bo‘yicha Ko‘kgumbaz masjidining oldi va yon atroflaridan 10000 metr kvadrat maydondan 4500 metr kvadrat xajmdagi tuproq ishlari bajarilib, 1,2 m. chuqurlik miqdorida tuproq qazib olindi. Masjidning 8 ta kichik gumbazlari qayta tiklanib, binoning ko‘rinish fasadlari qayta ta’mirlandi, binoni mustahkamlik darajasi oshirildi. Masjid atrofidagi uylar ko‘chirilib, majmua yanada kengaytirildi, uni asl holatiga qaytarish uchun harakat qilindi. Ko‘kgumbaz jome’ masjidi ta’miri uchun davlat tomonidan 2 mlrd. 900 mln. so‘m ajratildi [4].

Qarshining bosh me’moriy obidasi – Ko‘kgumbaz masjidida yubileyning asosiy tadbirlari o‘tkazildi. O‘zbekona odatga ko‘ra yubiley kunlari elga osh berish, mamlakatimiz va xorijdan tashrif buyuradigan tarixchi olimlar, arxeologlar, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi va boshqa tegishli tashkilotlar vakillari ishtirokida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi.

Masjid bir necha bor ta’mirlandi. 1996 yilda ham Ko‘kgumbazda ta’mirlash ishlari olib borilib, bu yerda darvozaxona qurilgan edi [5].

Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi oldidan shaharda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Shahar tarixiy obidalari orasida XVI asrda bunyod etilgan

Ko‘kgumbaz jome’ masjidining alohida o‘rni bor. 2005-2006 yillarda Ko‘kgumbaz me’moriy majmuasi kayta ta’mirlandi va hozirgi ko‘rinishdagi asl qiyofasiga ega bo‘ldi. Ushbu xayrli ishlarni Samarqand, Toshkent, Sirdaryo, Buxoro, Xorazm va Namangandan kelgan 155 nafar tajribali kuruvchi va mohir hunarmand-ustalar bajarishdi. Natijada bu yerda balandligi besh metr bo‘lgan va butun hovli atrofini egallagan ulkan ayvon qurilishi tugallandi. Ko‘kgumbaz masjidi va yangi ayvонни namanganlik taniqli kuruvchi Tohirjon Zarifboyev boshchiligidagi ustalar amalga oshirishdi [6].

Samarkand shahridagi “Me’mor-96” ta’mirlash ustaxonasining tajribali ustalari, jumladan katta tajribaga ega ustalar Rivojiddin Egamberdiyev, Shokir Madaminov, shuningdek, taniqli temirchi usta, Alisher Navoiy nomli Davlat mukofoti sovrindori Matlubjon Mahmudovlar masjid devorlarining tashqi qismiga sayqal berishda ishtirok etdi. Yodgorlik ta’mirida ishlatilgan “musulmon g‘isht”lar Shahrisabz shahridagi “Meros” mas’uliyati cheklangan jamiyat tomonidan yetkazib berilgan bo‘lsa, masjid mehrobidagi koshinlar Toshkent shahridagi “Ijod” firmasi tomonidan nusxa ko‘chirish orqali tayyorlandi. Yog‘och naqshli ustunlar va ularning marmardan ishlangan poyednrlari Toshkent va Samarqand shaharlarida tayyorlanib, olib kelindi [7].

Shuningdek, Nasaf ko‘chasining O‘zbekiston ko‘chasi bilan kesishgan joyidan “Ko‘kgumbaz” jome’ masjidigacha bo‘lgan masofadagi barcha turar joy binolari eng so‘nggi dizaynda rekonstruksiya qilindi. “Ko‘kgumbaz” ning atrofidan esa 3,5 hektar yer ochilib, sayilgoh barpo etildi. Uning yonidagi “Asr mo‘jizasi” choyxonasasi kariyalar choyxonasiga aylantiriladi [8].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hakimov K. Qarshining qo‘sh gavhari // Qashqadaryo, 2006 yil 27 oktabr.
2. Muqaddas manzil // Qashqadaryo haqiqati, 1996 yil 21 sentabr.
3. Qarshi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – B.67 – 78.
4. Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi ma’lumoti, 2022 yil 14 mart.
5. Hakimov K. Qarshining qo‘sh gavhari // Qashqadaryo, 2006 yil 27 oktabr.
6. Qashqadaryo, 2005 yil 1 noyabr
7. Muhammadiyev A. Qo‘kgumbaz va sayilgoh // Qashqadaryo, 2005 yil 16 avgust.
8. Temirov T. Qarshi qutlug‘ to‘ygacha (Qarshi shahar arxitektura va qurilish boshqarmasi boshlig‘i Murtoza Mustafoev bilan suhbat) // Qashqadaryo, 2005 yil 12 iyul.